

SURXON TONGI

2026-yil
7-yanvar
(chorshanba)
1-son
(17 985)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

“AFG‘ON SHAMOLI” CHEKINADI...MI?!

**DOLZARB
MAYZU**



Ekologik muvozanatni ta'minlash, chang-to'zonlarning oldini olish bo'yicha viloyatimizda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu toza havodan nafas olishimiz, sog'lom hayot kechirishimiz uchun juda muhim. Qolaversa, uzoq umr ko'rishning kafolati ham shunda.



“yashil makon” barpo etilayotganining boisi ham shundan. Ushbu ezgu tashabbusga viloyat ahli qo'lni qo'lga bergan holda hamjihatlikda o'z hissasini qo'shishga kirishgan. Muntazam ravishda hasharlar tashkil etilib, ko'ngilli aholi, tashkilot, idora va “mahalla yettilligi” a'zolari tomonidan 4 mingdan ortiq iqlimga mos manzarali ko'chatlar ekildi. Ushbu ko'chatlar

chang-to'zonni ushlab qolish, yerning meliorativ holatini yaxshilash va aholi uchun sog'lom ekologik muhit yaratishga xizmat qiladi. Albatta, har jihatdan rivojlangan, havosi tozasi, manzarasi dillarni quvnatguvchi hududda turizm ham rivojlanadi. Ayni tashabbuslarga hamohang tarzda tumanda yangi g'oya va loyihalar ham amalga

oshirilmog'daki, bu foydadan xoli emas. Surxon daryosining Termiz tumani hududidan oqib o'tuvchi qismida, M-41 avtomagistralining Termiz shahriga kirish nuqtasiga tutash hududda zamonaviy va yirik investitsion loyiha — “Obi hayot park” majmuasi barpo etilmoqda. Hududdagi mavjud daraxtlar va yashil maydonlarni asrab-avaylash, tabiatga zarar yetkazmagan holda loyiha yechimlari moslashtirib olib borilayotgani esa loyiha qiymatini yanada oshiradi. Umumiy qiymati 50 million AQSH dollari bo'lgan majmuva Surxondaryo bo'yidagi 20 gektar bo'sh maydonda barpo etilib, aholi dam olishi, turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

— Ilmiy kuzatuvlar shuni ko'rsatmog'daki, shamol yo'nalishlari bo'ylab barpo etilayotgan yashil hududlar chang-to'zonning tarqalishini sezilarli darajada pasaytiradi, — deydi viloyat Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi matbuot kotibi Temur G'oyibnazarov. — Ayniqsa, iqlimga mos, ildiz tizimi kuchli bo'lgan daraxt va butalarning ekilishi tuproqning mustahkamlanishiga, havodagi zararli zarrachalarning ushlanib qolishiga yordam beradi. Viloyat bo'ylab olib borilayotgan ushbu tizimli ishlar nafaqat bugungi ekologik muhitni yaxshilash, balki kelajak avlodlar uchun barqaror va sog'lom hayot sharoitini yaratadi.

“Surxon tongi”

VOHA XABARLARI

BANDIXON TUMANIDA “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ijtimoiy reyestrda turuvchi 119 nafar oilaga subsidiya asosida 19 turdagi 5 500 dona mevali daraxt ko'chatlari tarqatildi.

BOYSUN TUMANIDAGI kon hududida yer qa'ridan nafaqat gaz, balki neft ham sizib chiqayotgani aniqlandi. Neft suyuqligining atrof-muhitga tarqalishining oldini olish maqsadida kon hududi atrofida, shuningdek, yaqin soy o'zani bo'ylab qo'shimcha himoya hovuzlari barpo etilib, ushbu infratuzilma neft suyuqligini xavfsiz saqlash va kelgusida samarali foydalanish imkonini beradi.

TERMIZ Olimpiya va parolimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchisi Sug'diyona Normuminova parataekvondo sport turi bo'yicha O'zbekiston chempionatida ishtirok etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Afsuski, xalq tili bilan aytganda “afg'on shamoli” nafaqat sog'ligimizga, obodligimizga, tozaligimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgani ayni haqiqat. So'nggi yillarda esa bu holat anchayin bosilganiga ko'pchilik amin bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ham ayni jihatlariga muhim e'tibor

qaratilgan. Turgan gapki, Murojaatnomada belgilangan vazifalar ijrosi doirasida viloyatimizda 10 ming gektar maydonda “yashil makon”, “yashil belbog” yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa ekologik muvozanatni ta'minlab, chang-to'zon ko'tarilishining oldini olishga xizmat qiladi. Termiz tumani, “Xalqobod” mahallasida, M-39 avtomagistraliga yaqin hududdagi 8 gektar maydonda

ISLOHOTLAR SAMARASI

“YETTILIK” UCHUN ULKAN MAS'ULIYAT

Hurmatli Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasini yo'llashga bag'ishlangan tadbirda so'nggi to'qqiz yilda el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimiz, iqtisodiyotimiz yangidan shakllanganligi, bozor munosabatlari, ijtimoiy himoyaning kengaytirilganligi, qonun ustuvorligi mustahkamlanganligi, eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilayotganini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Ijtimoiy himoyaning kengaytirilgani misolida viloyatimizda 723 ta mahallada 680 nafar ijtimoiy himoya xodimlari o'z ish faoliyatlarini olib bormog'daki, bir so'z bilan aytganda, islohotlar aniq amaliy natijaga aylandi. So'zimiz tasdig'i sifatida tobora yangicha qiyofa kasb etayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis markazlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar salmog'i misol qilish mumkin.

Islohotlar samarasi o'laroq 2025-yilda barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erisha oldik. Birgina vohamizda ham mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'siri yuksalib, mahallalarimizda 4 300 nafar “mahalla yettilligi” xodimlari va mahalla bankirlari ish faoliyatlarini tashkil etildi. Shuningdek, viloyatdagi barcha mahallalarda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan obro'-e'tiborli uch nafar faol nuroniyni beshta kambag'al oilaga birlashtirish orqali ularni kambag'allikdan chiqarishga ko'maklashish hamda mahallada sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga jalb etildi.

Mahalla ahli bo'lsa, jamiyat hamjihat va tinch bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Shu bois, Prezidentimizning 2026-yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e'lon qilgani xalqimizni yanada ruhlantirdi.

2026-yilgi davlat dasturida yurtimizdagi 9 mingdan ziyod mahallani mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini topishini va oldimizga qo'ygan maqsadlarni faqat o'zimiz – katta hayotiy tajribaga ega mahalla raislari va faollari, hurmatli nuroniylarimiz, opa-singillarimiz, serg'ayrat yoshlarimiz, ziyolilarimiz, ishbilarmon tadbirkorlarimiz, Vatani posbonlari, bir so'z bilan aytganda, butun xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiramiz.

Birinchi ustuvor yo'nalish – mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirishdan iborat. Zotan, yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Hozirgi vaqtda qaysidir mahallada yo'l, qaysi birida suv yoki elektr masalasi, boshqasida bog'cha, maktab, tibbiyot, yana birida uy-joy bilan bog'liq masalalarga alohida-alohida yechim berilmog'da. Ochiq aytish kerak, buning o'zi bilan mahalladagi barcha masalalarni to'liq hal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun joriy yildan mahallani rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuv joriy etilishi ayni ko'ngildagi tashabbus bo'ldi. Jumladan, viloyatimizda Denov, Qiziriq va Muzrabot tumanlari tanlab olinib, ularning hamma mahallada barcha muammolarni bir vaqtning o'zida hal qiladigan tizim yaratiladi. Joriy yilda 100 milliard so'mdan

mablag' ajratilib, bog'cha, maktab, poliklinika, shuningdek, ichki yo'llar quriladi va ta'mirlanadi, kanallar beton bilan qoplanadi, sel-suv ombori barpo etiladi. Qolaversa, viloyatdagi 30 ta sharoiti og'ir mahalladagi ishlar ham shunday tashkil qilinadi. Ularda bir vaqtning o'zida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantiriladi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 5 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Hokimlarga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklarni qisqartirib, tejalgan mablag'ni aholi o'rta qo'ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etilgani ham ibratli ishlarga debocha bo'ldi. Bu orqali tumanlar byudjetida yiliga 5 trillion so'mlik qo'shimcha manba shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanishi, kelgusi yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so'mni viloyatlarning o'ziga berilishi, eng muhimi, bu mablag'larning har bir so'mi aholi uchun qo'shilgan qiymat yaratadi. Shu bois, bu pullar qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o'rnlari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo'naltirilib, bunda qaysi mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri loyiha qilib, uni asoslab bersa, zarur mablag'ni olishi mumkin bo'ladi.

2026-yilda “mahallada sanoat va xizmat” loyihasi orqali 10 mingdan ziyod

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalarini ishga tushirish uchun 5 trillion so'm kredit va kredit foizining milliy valyutada 10 foizgacha, xorijiy valyutada 4 foizgacha bo'lgan qismi Tadbirkorlik kompaniyasidan qoplab berilishi, buning uchun ham byudjetdan 400 milliard so'm yo'naltiriladi. Natijada mahallalarda 100 mingta yangi ish o'rni yaratilib, bunda har bir mahallada 40 tadan mikroloyihami amalga oshirib, aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga joriy yilda yana 7,5 trillion so'm resurs ajratiladi. Ushbu yilda aholini, xususan, xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, buning uchun zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha uch yillik dastur qabul qilinib, bunga 1 trillion so'm yo'naltiriladi, mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi ham elning ma'naviy olami boyishiga xizmat qilajak.

Oziq-ovqat mahsulotlarini xalqimizga barqaror narxda yetkazib berish ham to'liq isloh qilinib, bozorlarimizni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil-o'n ikki oy barqaror narxda ta'minlash uchun 2026-yildan doimiy intervensiya tizimiga o'tiladi. Hududlardagi “Oziq-ovqat jamg'armalari”ga ajratiladigan resursni 2,5 barobar ko'paytirib, 500 milliard so'mga yetkazilishi, vohamizda meva-sabzavotga ixtisoslashgan mahallalarda sig'imi 100 tonnagacha bo'lgan kichik sovuqkichli omborlar barpo etilishi ham har bir mahalla raisi va hokim yordamchisi, mahalla bankiri uchun dolzarb vazifasiga aylanadi.

Avvalo, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Endi barcha davlat idoralarning 1 mingdan ziyod davlat



Saydulla ABDURAIMOV,
O'zbekiston mahallari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati

xizmatlari; 5 mingdan ortiq funksiya va vazifalari; 200 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi; 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi, platformaga kelib tushgan murojaatlar, ularni ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini nazorat qilish sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi. Sodda qilib aytganda, mahalladan tortib respublika darajasida hal bo'ladigan har bir masalaning ijrochisi, muddati, resursi bir joyda ko'rinib turadi, 2026-yilda Namangan, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahri, shuningdek, ularning tuman va mahallalarda qurilish, adliya, oliy ta'lim, soliq idoralari va ularning viloyat, tuman bo'limlarida ushbu platforma to'liq sinovdan o'tkaziladi. Bu kabi islohotlar mahalla yettilligi uchun ulkan mas'uliyat yuklaydi.

XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

SURXONDARYO VILOYATINING 2026-YILGI MAHALLIY BYUDJETINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 01/57-1-29238-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinсин.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari 3 922,2 milliard so‘m va xarajatlari 6 087,7 milliard so‘mga ma‘lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 2 165,5 milliard so‘m miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar 279,1 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinсин.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2026-yilda: a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

— qo‘shilgan qiymat solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— foyda solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— benzin, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

— yig‘imlar (qonunchilikda respublika byudjetiga yo‘naltirilishi belgilangan yig‘imlardan tashqari);

— jarimalar;

— davlat bojilari;

— davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushumlar;

— qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar;

b) viloyatning viloyat byudjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

— yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

— yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

— alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘i;

— yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘i tushumlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib

boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbayida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

— elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq;

— davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

— mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

— mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq to‘liq hajmda taqsimlansin;

— boshqa tushumlar (a va b kichik bandlarda nazarda tutilgan tushumlardan tashqari barcha tushumlar);

d) quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

— jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

— jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

— jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— aylanmadan olinadigan soliq;

— davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushadigan tushumlar;

— qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar va elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

— yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

e) yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat byudjetiga yo‘naltiriladi.

4. Quyidagilar: Surxondaryo viloyatining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy

ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2027-2028-yillarga mo‘ljallari 1-ilovaga;

Surxondaryo viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga;

Surxondaryo viloyatining viloyat byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat byudjeti bilan tumanlar va shaharlar byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Surxondaryo viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin. Viloyatning viloyat byudjetidan shahar va tumanlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar byudjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq ma‘lumot uchun qabul qilsin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 19,0 milliard so‘m etib hamda 2026-yil uchun shahar va tumanlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat byudjeti xazira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 31,9 milliard so‘m miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Surxondaryo viloyatining viloyat byudjeti, shahar va tumanlar byudjetlarining xazira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan shahar va tumanlar byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda tumanlar va shaharlar byudjetlarining xazira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat byudjeti xazira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinсин.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha

birinchi o‘rinbosari Sh.Rajabov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Abdullayev), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash choralari bo‘yicha

9. Shahar va tumanlar hokimliklari, hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas‘uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliq va boshqa majburiy to‘lovlarining to‘liq tushumini ta‘minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) hududiy viloyat organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

— soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

— yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari bo‘yicha

— aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

— yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya‘ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (T.Qurbonov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Nomozov) bilan birgalikda:

— bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

— xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

13. “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (B.Alimov) va viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov) shahar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste‘mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan iste‘mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratsin.

14. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Ismailov), viloyat Adliya boshqarmasi (A.Isoqov) viloyatda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq byudjetga undirish choralari bo‘yicha

15. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatilsin.

16. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflaniganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

— byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

— o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajattar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajattar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

— byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

— o‘z tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

— o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

— byudjet jarayonining ochiqligini ta‘minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma‘lumotlarni joylashtirib borilishini ta‘minlasinlar.

17. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (F.Samatov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralari bo‘yicha ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

18. Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (N.Samanov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyati Kengashi soliqsiz mahalliy axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

19. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshlig‘i Sh.Rajabov bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblarini hamda boshqa ma‘lumotlarni e‘lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

20. Mazkur qarorning tegishli tahririylar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi A.CHORIYEV VII-17-173-8-0-K/25-son

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda 711-173-8-0-K/25-son qaroriga 2-ilova

VILOYATNING 2026-YILGA RIVOJLANTIRISHNING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI, PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI HAMDA 2027-2028-YILLARGA MO‘LJALLARI

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	2027-yil uchun mo‘ljal	2028-yil uchun mo‘ljal
1.	Yalpi hududiy mahsulot (trillion so‘m)	63,7	72,2	82,0
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur‘ati (foizda)	106,8	106,3	106,4
3.	Iste‘mol narxlar indeks, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan (foizda)	9,8	9,6	9,6
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur‘ati (foizda)	107,2	107,5	107,7
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati (foizda)	103,3	104,2	105,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur‘ati (foizda)	114,1	114,5	114,7

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda 711-173-8-0-K/25-son qaroriga 2-ilova

VILOYAT MAHALLIY BYUDJETI DAROMADLARINING 2026-YILGI ASOSIY PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI (ming so‘m da)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	Mahalliy soliq va tushumlar	1 979 949 540
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	86 586 600
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 097 704 540
3	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	96 882 940
4	Aksiz solig‘i jami	329 027 710
shu jumladan:		
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	1 619 400
	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	327 408 310
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	32 700 000
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	67 894 000
7	Davlat bojilari	124 269 780
8	Jarimalar	96 484 710
9	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat byudjetiga ajratmalar	482 000
10	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	4 360 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 665 000
12	Yig‘imlar	40 892 260
II.	Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	2 165 440 300
shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar		279 138 000
Daromadlar hammasi		4 145 389 840

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda 711-173-8-0-K/25-son qaroriga 3-ilova

2026-YIL UCHUN VILOYATNING VILOYAT BYUDJETIDAN HUDUDIY BYUDJET MABLAG‘LARI TAQSIMLOVCHILARGA AJRATILADIGAN MABLAG‘LARNING CHEKLANGAN MIQDORLARI (ming so‘m da)

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajattar miqdori, jami		4 145 389 840
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		3 821 299 596
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar		324 090 244
Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar		0
1	Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi	483 874 222
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		252 139 178
shundan:		
	“Yoshlik” sport markazi xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	231 735 044
2	Olly ta‘lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi	266 212 800
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		266 212 800
shundan:		
	Olly ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
3	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	231 780 434
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		162 780 434
shundan:		
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	8 717 496
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	3 133 697
	Bolalar ijtimoiy moshlavuvi markazi	0
	Sog‘liqni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	409 721
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	69 000 000
4	Madaniyat boshqarmasi	72 860 028
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		72 860 028
shundan:		
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
5	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi	3 879 916
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		3 879 916
shundan:		
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0
6	Sport boshqarmasi	85 948 508
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		85 948 508
shundan:		
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0

7	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	3 939 273
shu jumladan:		
jiyori xarajattar		3 939 273
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar		0
8	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi	

(Davomi. Boshlanishi 2-sahifada.)

Table with 3 columns: ID, Description, Amount. Rows include Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi, joriy xarajalar, Kambag'alikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi, etc.

Table with 3 columns: ID, Description, Amount. Rows include Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sug'orish markazi davlat muassasasi, Fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlari xodimlarining mala-kasini oshirish o'quv kursi, etc.

Table with 3 columns: ID, Description, Amount. Rows include obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya sinig, etc.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga 4-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga 5-ilova

2026-YILDA UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR HAMDA SOLIQ BO'LMAGAN TO'LOVLAR BO'YICHA BELGILANADIGAN AJRATMA ME'YORLARI

SURXONDARYO VILOYAT MAHALLIY BYUDJETINING 2026-YIL DAROMADLARI VA XARAJATLARINING CHEGARAVIY HAJMI

Table with 13 columns: T/r, Hududlar nomi, Tuman (shahar)lar byudjetiga, Viloyatning viloyat byudjetiga, Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan.

Table with 5 columns: T/r, Hudud nomi, Mahalliy byudjetlarning jami daromadlar, Mahalliy byudjet daromadlari, Mahalliy byudjet xarajatlari.

Table with 13 columns: T/r, Hududlar nomi, Foyda solig'i, Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari), Pivo, Viloyatning viloyat byudjetiga.

*Tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlarni inobatga olgan holda.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrda VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga 6-ilova. 2026-YILDA VILOYAT, SHAHAR VA TUMANLAR MAHALLIY BYUDJETLARIDA YO'L QO'YILADIGAN ENG KAM MABLAG'LAR MIQDORI

FAOLIYAT Aholi hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, xonadonlarda yong'in va boshqa favqulodda holatlarning oldini olish maqsadida viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan joriy yil "Xavfsiz xonadon oyligi" bilan boshlandi.

Table with 13 columns: T/r, Hududlar nomi, Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i, Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.

Table with 3 columns: T/r, Hudud nomi, Miqdor. Rows include Viloyat byudjeti, Termiz shahri, Oltinsoy tumani, etc.

Table with 13 columns: T/r, Hududlar nomi, Qurilish materiallari bo'yicha yer q'ridan foydalanilganlik uchun soliq, Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq, Davlat ulushi bo'yicha dividendlar.

Table with 13 columns: T/r, Hududlar nomi, Davlat boji, Jarimalar, Yig'imlar, Aylanmadan soliq, Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i, Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari.

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari shahar va tumanlar hamda viloyat byudjeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi. 2. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo'yicha) tushgan pul mablag'lari shahar va tumanlar byudjetiga qoldiriladi. 3. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan barcha soliqlar, soliqlik tushumlar hamda yuqorida ko'zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat byudjetiga yo'naltiriladi.



Mazkur oylik doirasida viloyatning shahar va tumanlarida keng qamrovli profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. FVB xodimlari mahalla faollari, profilaktika inspektorlari hamda tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda xonadonma-xonadon o'rganish ishlarini olib bormoqda. Ushbu jarayonda itisish tizimlari, gaz jihozlari, elektr tarmoqlari holati tekshirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aholiga amaliy tavsiyalar berilmoqda. Shuningdek, mahallalarda, ko'p qavatli uylarda, ta'lim muassasalarida davra suhbatlari, o'quv-ma'ruzalar va ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Ularda yong'in xavfsizligi qoidalari, gazdan zaharlanishning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartiblari keng tushuntirilmoqda. Oylik tadbirlari doirasida qutqaruv bo'linmalari tomonidan namunali amaliy mashg'ulotlar tashkil etilib, aholiga qutqaruv xizmatlarining tezkor harakatlarini jarayoni ko'rsatib berilmoqda. Bu esa fuqarolarning xavfsizlikka bo'lgan o'zgaruvchan mas'uliyatini oshirishga zamin hozirlaydi. Zero, xavfsiz xonadon — farovon va barqaror jamiyat poydevoridir. Zulfiya SOHIBOVA, Viloyat FVB axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati yetakchi mutaxassisi

BUGUNNING
GAPI

“MO‘JAZ VATAN”LARNING YILI BO‘LAJAK

Xalqimizning sevimli filmi — “Suyunchi”da Anzirat buvi obrazi orqali mahallaning asl mohiyati, uning odamlar hayotidagi o‘rni chuqur va ta’sirchan ifodalanadi. Anzirat buvi uchun mahalla — bu shunchaki qo‘ni-qo‘shnilar yig‘indisi emas, balki bir-biriga suyanch bo‘ladigan, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham yonma-yon turadigan katta oila.



Demakki, xalqimiz tafakkurida mahalla nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy institut, balki hayot maktabi sifatida ham qaraladi.

Anzirat buvi obrazi orqali oddiy, ammo chuqur bir haqiqat ochiladi: jamiyat qanchalik rivojlanmasin, texnologiyalar qanchalik yuksalmasin, inson qalbiga eng yaqin, eng ta’sirchan tarbiya manbai — bu mahalladir. Anzirat buvi mahallani qonun bilan emas, vijdon bilan boshqariladigan makon sifatida ko‘radi.

Bugungi islohotlar mohiyatiga nazar tashlasak, davlatimiz tomonidan mahallaga berilayotgan vakolat va imkoniyatlar aslida ana shu xalqona falsafaning zamonaviy davomidir. Endi mahalla nafaqat mehr va maslahat maskani, balki muammo yechiladigan, adolat qaror topadigan, inson ulug‘lanadigan makonga aylanmoqda.

ELNING KAYFIYATI — FAOLIYATNING SIFATI

Bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning natijasi qayerda yaqqolroq sezilmoqda, degan savolga ko‘pchilik ikkilanmasdan: mahallada, deb javob beradi. Chunki xalqning kayfiyati, turmush darajasi, ertangi kunga ishonchi, eng avvalo, o‘z yashab turgan mahallasidagi muhit orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois mahalla bugun shunchaki hududiy birlik emas, balki jamiyat vijdonining ko‘zgusiga aylanib bormoqda.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz boshchiligidagi olib borilayotgan davlat siyosatida mahalla institutiga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Zero, davlat bilan xalqni bog‘lab turadigan eng quyi, ammo eng muhim bo‘g‘in aynan mahalladir. Bugun mahallaga faqat o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida emas, balki inson taqdiri, oilalar farovonligi va jamiyat barqarorligini ta’minlovchi qudratli ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda.

— Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “inson qadri uchun” tamoyili ustuvor etib belgilangan bo‘lsa, uning amaliy ifodasi

aynan mahallalarda namoyon bo‘lmoqda, — deydi Termiz tumani, “Istiqlol” MFYda kompleks ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim Jumanazar Choriyev. — Chunki inson muammosi qog‘ozda emas, u yashayotgan xonadonda, ko‘chada, qo‘ni-qo‘shni orasida hal bo‘ladi. Shu ma’noda, mahallani davlat organi sifatida emas, balki fuqarolik jamiyati instituti sifatida e’tirof etish bugungi islohotlarning eng muhim natijalaridan biridir. Bugungi kunda mahallamizda 80 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, jumladan, 12 nafar kambag‘allik reyestrtdagi fuqaro, 68 nafar yagona reyestrtdagi oila istiqomat qiladi. Demakki, bu mahallamiz faqatgina ijrochi emas, balki tashabbuskor subyektaga aylanishi lozimligini anglatadi. Mahalla raislari va faollari bugun har bir oilaning ahvolidan xabardor bo‘lish, ehtiyojmandlarga manzilli yordam ko‘rsatish, yoshlarni kasbga yo‘naltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish kabi mas’uliyatli vazifalarni zimmasiga olmoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, Termiz tumani, “Istiqlol” MFYda o‘tgan yilning 1-oktyabr holatiga ko‘ra ijtimoiy himoya reyestrtdagi fuqarolar soni 113 nafar bo‘lgan bo‘lsa, shundan 74 nafari yagona reyestrtda, 39 nafari esa kambag‘allik reyestrtda kiritilgan edi. Kambag‘allik reyestrtdagi fuqarolarga ko‘rsatilgan amaliy ko‘mak evaziga mazkur raqam joriy yilning ilk oyida olingan statistik hisobga ko‘ra 3 barobarga qisqarganligini kuzatish mumkin.

KONSTITUTSIYAVIY KAFOLAT — MAHALLANING MUSTAHKAM TAYANCHI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mahallalarga mutlaqo yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Endilikda mahallalar o‘z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash hamda samarali jamoatchilik

nazoratini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi.

Mahalla raislarining vakolat muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirilishi, “yettilik” vertikal tizimining joriy etilishi joylarda ishni samarali tashkil etish uchun muhim omil bo‘ladi. Endilikda kredit, subsidiya, kompensatsiya, moddiy yordam kabi yuzdan ortiq xizmatlar bevosita mahalla darajasida ko‘rsatilmoqda. Bu esa muammolarni yuqori idoralarga chiqarmasdan, joyida hal etish imkonini bermoqda.

Natijada millionlab fuqarolar real yordamni o‘z vaqtida ola boshladi. Kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida mahallalar muhim tayanchga aylandi.

Shu bilan birga, ochiq tan olish kerak: hamma mahallalarda ham ish bir xil darajada emas. Ayrim hududlarda tashabbus yetishmasligi, jamoa bo‘lib ishlashda sustkashlik, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanmaslik holatlari ham uchrab turibdi. Bu esa mahallani faqat yordam kutuvchi emas, balki imkoniyat yaratuvchi institut sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ana shunday sharoitda ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, faol mahallalarni boshqalarga namuna sifatida ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

— Mahallamizda o‘z o‘rniga ega oilalardan biri “Ibratli oila” ko‘krak nishoniga sazovor bo‘ladi. Bu yuksak e’tirof sizning oilangizning jamiyatga qo‘shayotgan beqiyos hissasining, mustahkam oilaviy qadriyatlariga sodiqligining yorqin dalilidir, — deydi Termiz shahri, “Bog‘zor” MFY yoshlar yetakchisi Laylo Mengto‘rayeva. — “Ibratli oila” bu nafaqat unvon, balki ulkan mas’uliyat hamdir. Zero, oila — jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, kelajak poydevoridir. Bu oila vakilasi Sayyora Nazarovaning faoliyatini yoshlarga o‘rnak qilish maqsadida mahallamiz hududida tashkil etilgan kutubxonada uchrashuvlar tashkil etmoqdamiz. Ularning oilasida mehr-muhabbat, o‘zaro hurmat va yuksak insoniy qadriyatlar hukmron. Bunday oilalar ko‘payishi mahalla osoyishtaligida asosiy jihatdir.

CHEGARADA — BARQARORLIK, MARKAZDA — MAS’ULIYAT

Termiz shahri mahallalari bugun nafaqat viloyat, balki mamlakat miqyosida ijtimoiy

barqarorlik va fuqarolik faolligi namunasiga aylanib

bormoqda. Chegaradosh hududda joylashganiga qaramay, Termiz mahallalarida tinchlik, hamjihatlik va jamoatchilik nazorati ustuvor qadriyat sifatida qaror topgan.

Shahardagi mahallalarda yoshlar bandligini ta’minlash, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, huquqbuzarliklarning oldini olishda “mahalla yettilligi” tizimi samarali ishlamoqda. Ayniqsa, ta’lim muassasalari, sport to‘garaklari va madaniyat maskanlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Bugun Termiz mahallalarida har bir oila holati alohida o‘rganilib, muammolar “yuqoriga chiqarmasdan”, joyida hal etilayotgani odamlarning mahallaga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Bu esa Termizni “mahalla orqali boshqarilayotgan shahar” sifatida namoyon qilmoqda. “Do‘stlik” ordeni sohibasi — “Namuna” MFY raisi Dilbar Muxammadova faoliyatini alohida ta’kidlash mumkinki, u rahbarlik qilgan jamoa inson qadrligini ulug‘ligini namoyon etuvchi amaliyotga ega. Mahalla bugungi kunda haqiqiy namunali hududga aylangan. Uning izchil islohotlarga kamarbasta olib borgan faoliyati esa natijador, samarali.

KECHADAN KUCH OLGAN, ERTASI ERKIN

Mahalla institutining bugungi qudratini tushunish uchun uning tarixiga nazar tashlash kifoya. “Mahalla” atamasi ilk bor Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchraydi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”da mahalliy boshqaruvning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida chuqur mulohazalar yuritadi. IX asr tarixchisi Narshaxiy esa “Buxoro tarixi” asarida bundan qariyb 1100 yil avval ham Buxoroda mahalla va guzarlar mavjud bo‘lganini qayd etadi.

Alishev Navoiy ijodida ham mahallaning jamiyat hayotidagi nufuzi yuksak baholanadi. Uning “Majolis un-nafoisi” asaridagi ma’lumotlar mahalladoshlar o‘rtasidagi hurmat, ahillik va hamjihatlik qadimdan qadrlanganini ko‘rsatadi. Bu tarixiy dalillar mahalla xalqimiz hayotida tasodifiy emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida shakllanganini anglatadi.

Mahalla — bu faqat hududiy birlik emas, balki xalqimizning

ko‘p asrlik ma’naviy tajribasi, hayot falsafasi va axloqiy mezonlari mujassam bo‘lgan ijtimoiy makondir. Mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat, qo‘ni-qo‘shnichilik, hamjihatlik kabi fazilatlar, avvalo, mahalla muhitida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

— Xalqimizda: “Yaxshi kuningda ham, yomon kuningda ham yoningda mahalla bo‘ladi” degan gap bejiz aytilmagan, — deydi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Botir Raxmonov. — To‘y-tomosh, hashar, xayriya, maraka kabi marosimlar mahalla ahli bilan maslahatlashib o‘tkazilgan. Yetim-yesirning holidan xabar olish, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish esa insoniy burch sifatida qaralgan. Shu bois “Mahalla — ham ota, ham ona” degan hikmatli ibora xalq ongida mustahkam o‘rnatilgan.

Bugun globalashuv sharoitida aynan mahalla ana shu qadriyatlarini asrab-avaylash, yoshlar ongiga singdirish, jamiyatni ma’naviy jihatdan sog‘lomlashtirish vazifasini bajarmoqda. Chunki hech qaysi institut inson ruhiyatiga mahallachalik yaqin ta’sir o‘tkaza olmaydi.

QOG‘OZ UCHUN EMAS, INSON UCHUN...

Prezidentimiz tashabbusi bilan Yangi O‘zbekiston qiyofasi kirib boradigan 33 ta tuman va 330 ta og‘ir mahalla belgilab olindi. Ushbu hududlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘llar, ichimlik suvi, elektr va gaz ta’minoti, maktablar, shifoxonalar, sport va madaniyat maskanlarini ta’minlash va qurish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar rejalashtirilgan.

2026-yildan boshlab mahallalar byudjeti uchun har yili 200 milliard so‘m ajratilishi esa mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada kuchaytiradi. “Tashabbusli byudjet”ning yangi mexanizmi orqali aholining o‘zi tashabbus ko‘rsatgan loyihalarga davlat tomonidan qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi ham jamoatchilik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Eng yaxshi soliq to‘lovchi mahalla” reytingining joriy etilishi, bo‘sh davlat obyektlarini auksionga chiqarish vakolatining mahallalarga berilishi joylarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Endilikda sotuvdan tushgan mablag‘ning katta qismi mahallaning o‘zida qolib, infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

DENOV TAJRIBASI OBODLIK VA FAROVONLIKNI KO‘ZLAYDI

Viloyatning iqtisodiy jihatdan faol hududlaridan biri bo‘lgan Denov tumanida mahallalar islohotlarning eng faol ijrochisiga aylangan. Bu yerda mahalla faqat ijtimoiy masalalar bilan emas, balki bandlik va daromad manbalarini yaratish bilan ham shug‘ullanmoqda.

Denov mahallalarida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, tomorqalardan umumli foydalanish, issiqxonaga xo‘jaliklarini rivojlantirish orqali minglab oilalarning daromadi oshirilmoqda. Mahalla faollari bank va soliq idoralari bilan hamkorlikda aholiga kredit, subsidiya va maslahat xizmatlarini bevosita joyida yetkazmoqda.

Bu tajriba shuni ko‘rsatadiki, agar mahalla iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etilsa, u kambag‘allikni qisqartirishda eng samarali bo‘g‘inga aylanaadi. Denov mahallalari bugun ana shu haqiqatni amalda isbotlamoqda.

Denov tumani, “Lolazor” mahallasi tumanda olib borilayotgan keng ko‘lamli obodonlashtirish va infratuzilmani yaxshilash ishlariga hamnafas hudud. Tumandagi ichki yo‘llari ta’mirlangan 16 ta mahalladan biri sifatida bugun “Lolazor” “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Mahallada ichki yo‘llar asfaltlandi, piyodalar yo‘laklari barpo etilib, simyog‘ochlar yangilandi, elektr tarmoqlari zamonaviylashtirildi.

Bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning natijalari, o‘zgarishlar va xalq kayfiyati, eng avvalo, mahallada namoyon bo‘lmoqda. Qaysi mahallada birdamlik, tashabbus va mas’uliyat kuchli bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot bor.

Mahalla — bu inson dardi eshitiladigan, muammo yechim topadigan, adolat qaror topadigan maskan. Shu ma’noda, mahalla jamiyatimizning yorug‘ yuzi, taraqqiyot tayanchi va vijdon ko‘zguvidir. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilingan 2026-yil esa “vatan ichra mo‘jaz vatanlar”ga yangicha ruhiyat va shukuh ulashadi.

Xurshid
KARSHIYEV

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi

TAHRIR HAY’ATI
Jo‘rabek TO‘RAYEV (hay’at raisi)
Abduraim CHORIYEV, Murodbek DAVLATOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV

Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin NORQOBILOV
MAS’UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
NAVBAATCHI MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV
SAHIFALOVCHI DIZAYNER
Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

TELEFONLAR:
76 224-23-85,
76 224-23-80,
76 224-23-87

Qog‘oz bichimi A-2, 2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi — 09:00
Bosildi — 11:00
Adadi 6 700 nusxa.
Buyurtma Γ-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A uy
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri, Shukrona ko‘chasi, 19-A uy

Gazeta “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.